

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE STUDY OF REPETITIVE UNITS IN THE LANGUAGE OF FAIRY TALES AND EPICS****Zebiniso Rasulova***Candidate of Philological Sciences**Senior Researcher at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore**Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan***Zuhra Yuldasheva***Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences**Senior Researcher at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore**Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan**Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Fairy tales, epics, figurative means, repetitions, classification of repetitive units.**Received:** 01.11.25**Accepted:** 02.11.25**Published:** 03.11.25

Abstract: In world linguistics, great importance is attached to the study of the figurative, artistic and aesthetic possibilities of language and their participation in examples of folk oral art. After all, by studying the language of works of folk oral art, which have been created and regularly refined over the centuries based on the life and living experiences of the people and in the desire to perceive the world, the opportunity to study the development of the national language is further expanded. Therefore, by determining, describing and classifying the scope of artistic means of expression in fairy tales and epics, special attention is paid to the peculiarities of the manifestation of the aesthetic and expressive aspects of the national language. The article discusses the poetic features of repetitions actively used in fairy tales and epics.

ERTAK VA DOSTONLAR TILIDA TAKRORLANUVCHI BIRLIKLAR TADQIQI**Zebiniso Rasulova***Ilmiy katta xodim, Filologiya fanlari nomzodi**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institute**Toshkent, O'zbekiston*

Zuhra Yuldasheva*Ilmiy katta xodimi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ertaklar, dostonlar, tasviriy vositalar, takrorlar, takroiy birliklar tasnifi.

Annotatsiya: Jahon tilshunosligida tilning tasviriy, badiiy-estetik imkoniyatlari va ularning xalq og'zaki ijodi namunalariidagi ishtiroki masalasi tadqiqiga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, asrlar davomida xalqning hayot va turmush tajribalari asosida hamda olamni idrok etish ishtiyoqida yaratilgan va muntazam sayqallanib kelgan xalq og'zaki ijodi asarlari tilini tadqiq qilish orqali milliy tilning taraqqiyot tarzini o'rganish imkoniyati yanada kengayadi. Shuning uchun ham ertak va dostonlardagi badiiy tasvir vositalari ko'lamini aniqlash, tavsiflash va tasniflash orqali milliy tilning estetik-ekspressiv jihatlarining namoyon bo'lishidagi o'ziga xosliklarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqolada ertak va dostonlarda faol qo'llanadigan takrorlarning poetik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПОВТОРЯЮЩИХСЯ ЕДИНИЦ В ЯЗЫКЕ СКАЗОК И ДАСТАНОВ

Зебинисо Расулова*Кандидат филологических наук**Старший научный сотрудник Института узбекского языка, литературы и фольклора**Академии наук Республики Узбекистан**Ташкент, Узбекистан***Зухра Юлдашева***Доктор философии (PhD) по филологическим наукам**Старший научный сотрудник Института узбекского языка, литературы и фольклора**Академии наук Республики Узбекистан**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Сказки, эпосы, образные средства, повторы, классификация повторяющихся единиц.

Аннотация: В мировой лингвистике большое значение придаётся изучению образных, художественно-эстетических возможностей языка и их роли в образцах народного устного творчества. Вед изучение языка произведений народного устного творчества, которые создавались и систематически совершенствовались на протяжении веков на основе жизненного опыта народа и стремления к познанию

мира, ещё больше расширяет возможности изучения развития национального языка. Поэтому, определяя, описывая и классифицируя сферу художественных средств выразительности в сказках и былинах, особое внимание уделяется особенностям проявления эстетических и выразительных аспектов национального языка. В статье рассматриваются поэтические особенности повторов, активно используемых в сказках и былинах.

Kirish. Xalq og‘zaki ijodining noyob janrlari – ertak va dostonlar tilini o‘rganish tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Bu janrlarning badiiy qimmati, xalq tafakkuri, hayoti va urf-odatlarini aks ettirishdagi o‘rni beqiyosdir. Ularning badiiy tili takroriy birliklarga boy bo‘lib, bu hodisa matnga ritmik, musiqiy va semantik uyg‘unlik bag‘ishlaydi. Tadqiqotning maqsadi – ertak va dostonlarda uchraydigan takroriy birliklarning turlari, ularning badiiy va estetik vazifasini aniqlashdir.

Aytish mumkinki, til muntazam ravishda taraqqiy etib turuvchi hodisa bo‘lganligi uchun davomli o‘zgarib turadi. Bu o‘rish-o‘zgarishlarning asosiy sabablaridan biri, tilning ifoda imkoni bilan bog‘liq ehtiyojni qondirish hisoblanadi. So‘z ustalari til birliklarini mahorat bilan ishlatish orqali tilning ifoda imkonini kengaytirishga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Ko‘hna adabiyotimizda so‘zlarni farqli shakllarda takrorlash orqali o‘ziga xos musiqiylikni hosil qilish keng tarqalgan stilistik an‘analardan biri hisoblanadi. Bir satr yoki misrada ot, fe‘l, sifat, son va boshqa turkumga oid so‘zlarni o‘zak yoki qo‘shimchali holda takrorlash orqali badiiy nutqning ta’sirchanligi ta’minlanadi. Shu bilan birga, esda saqlab qolishni qulaylashtiradi. Klassik she’riyatimizda takrorga asoslangan alohida san’atlarning rivojlanganligi fikrimizni dalillaydi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot manbalari sifatida o‘zbek xalq ertaklari va dostonlari, xususan, “Zumrad va Qimmat”, “Xoldorxon” singari namunalardan foydalanildi. Shuningdek, J.Eshonqulning “Mif va badiiy tafakkur” (2019) va Sh.Turdimovning “Genezis i etapi evolyusii epesa Go‘ro‘g‘li” (2011) asarlaridagi nazariy qarashlar tahlil etildi. Tadqiqotda taqqoslash, struktural tahlil, leksik-semantik hamda stilistik tahlil usullari qo‘llandi.

O‘zbek tilshunosligining lingvopoetika deb ataluvchi tadqiqot sohasi badiiy asarning ifoda imkoniyatlarini tadqiq etish va baholash amaliyoti bilan shug‘ullanadi. Bu faoliyat doirasida juda ko‘p shoir va ijodkorlarning asarlari tahlilga tortilgan. Biroq dostonlar va ertaklar tili bilan bog‘liq tadqiqotlar soni juda kam. Matnning butun holda saqlanishi, uning tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazilishida takrorlar muhim aloqa vazifasini bajaradi. Takror matn yoki matn parchasini bir butun holda saqlanishini ta’minlovchi o‘ziga xos yopiq tizimdir. Bu tizimning ishlash mexanizmi ham g‘oyat o‘ziga xosdir. Dastlab, matn shakllanishida ishlatilgan bu tizim ijro jarayonini

qulaylashtirishga ham ko'maklashadi va shu tariqa ikkinchi vazifasini ado etadi. Tinglovchi tomonidan matnning qulay anglanishini ta'minlash barobarida uzoq muddat xotirada saqlash imkoniyatini yaratishi bilan yana bir muhim vazifasini bajaradi.

Takrorlar bilan bog'liq tadqiqotlarda mazkur birliklar haqidagi hozirgacha ma'lum bo'lgan ilk manba eramizdan avvalgi V asrda yashagan Leotilik Gorgiasga tegishli ekanligi ta'kidlanadi. [8.128] Zamonaviy tilshunoslikda takroriy birliklar matnni shakllantiruvchi bir vosita sifatida tilga olinadi. [9.1-14] Biroq hamma ham ayni fikrda emas. Ba'zi olimlar takroriy birliklarni so'z isrofi [10. 205], ortiqchalik [11.395] deb baholaydi. Ko'pgina pedagoglar esa bundan farqli qarashlarni ilgari surib kelishadi. Ular ta'limda takrorlarni o'rganishning asosi va muloqot vositasi deb bilishadi. Matnda yoki og'zaki aytilgan fikrda takrorlangan birlik miyada ayni unsurlar bilan aloqa hosil qiladi va anglanish jarayonini qulaylashtiradi degan fikrni asoslashga harakat qiladilar. Ayniqsa, she'rning naqarotidagi, qofiya va radiflaridagi takrorlar matnning esda saqlanib qolishini ta'minlovchi muhim birliklar ekanligini ta'kidlashadi. Aslida bunday birliklar isrof yoki ortiqcha birlik emas, balki matnning butunligini ta'minlovchi unsurlardir. Takrorlanuvchi birliklar pedagogikada "orqa plandagi shovqin" deb ataladigan noqulayliklarni bartaraf qilishda alohida ahamiyat kasb qiladi. Shuning uchun ham K.Weils takroriy birliklarga o'gay ko'z bilan qaramaslik kerakligini ta'kidlaydi. Bu o'rinda "orqa plandagi shovqin" tushunchasi bir necha so'z va iboralar bilan izohlanadigan vaziyatni ifodalaydi. Bunday vaziyatdan chiqib ketish uchun o'quvchi yoxud tinglovchiga ma'lum bo'lgan birlikning takroridan foydalanishning maqsadga muvofiqqligini ta'kidlaydi. Shu ma'noda ingliz tilshunosi K.Weils takroriy vositalarning muloqot asnosida muvaffaqiyatli aloqa vositasi va motivatsiya unsuri bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, adabiyotda jonli so'zlashuv tarziga xos uslubning namoyon bo'lishiga xizmat qilishini ham aytib o'tadi. [11.395]

Ingliz tadqiqotchisi D.Tannen muloqot jarayonida takrorning "ma'lumot olishning qulay vositasi" ekanligini qayd qilgan: "Takrorlanuvchi so'zlar ma'lumot olish va olingan ma'lumotni esda saqlab qolishga ko'maklashuvchi muhim vositalardir". [8.137] D.Tannen xalq og'zaki ijodida takrorning voz kechib bo'lmaydigan vositasi ekanligini ham ta'kidlagan. [8.138] Ximiya fanida izotop termini mavjud. Keyingi yillar mobaynida matn tilshunosligi borasida olib borilayotgan tadqiqotlarda ham izotop termini ishlatilmoqda. Bunda umumiy bo'lgan semantik markazni hosil qiluvchi ikki yoki undan ortiq o'xshash unsurlarning munosabatini ifodalash uchun ishlatilmoqda.

Takrorlar adabiy matnda, har doim matnni shakllantiruvchi vosita sifatida, ifoda ta'sirchanligini orttiruvchi va ohang tugalligini hosil qiluvchi birlik sifatida qaraladi. E'tibor berish kerak bo'lgani takrorlanuvchi birliklar orasidagi masofadir. Takrorlangan unsurlar qay darajada tartibli bo'lsa, matnning ritmik-intonatsion jihati shunchalik tartibli bo'ladi. Odatda, takrorlangan so'z va boshqa unsurlar ritmik-semantik jihatdan "bo'sh" o'rinni to'ldirib keladi. Realistik tasvir

uslubi o'quvchiga vaziyat, holatni yetkazishda faqatgina ijodkor mahoratiga tayanadi, ya'ni mayda detallargacha tasvirlash o'quvchidagi ta'sir va tasavvurning aynan ijodkor xohlagandek yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

So'z takrori.

Bu turdagi takror xalq ertaklarining eng ko'p uchraydigan shaklidir. Masalan, "boribdi-boribdi", "yo'lga chiqibdi" kabi ifodalar ertak boshlanishining ajralmas qismi bo'lib, tinglovchini ertak muhitiga olib kirish, matnga ohangdorlik va ritm bag'ishlash vazifasini bajaradi. Bu takrorlar nafaqat fonetik uyg'unlikni yaratadi, balki xalq og'zaki nutqining tabiiy musiqasini ifoda etadi. Shu bilan birga, bu kabi birliklar ertaklarda voqealar izchilligini ta'minlab, o'quvchining e'tiborini asosiy mazmunga yo'naltiradi.

Ibora takrori.

Ertak va dostonlarda "uch kun, uch tun", "etti tog' ortida", "to'qqizta el ichida" kabi barqaror iboralar tez-tez uchraydi. Ular folklor ritmini kuchaytiradi, hikoya jarayonini maromda davom ettiradi va xalq tafakkurida "uch", "etti", "to'qqiz" kabi sonlarning ramziy ma'nosini mustahkamlaydi. Masalan, "uch kun, uch tun" iborasi ko'pincha qahramonning sinovdan o'tish, sabr va bardoshini ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday takrorlar tinglovchiga vaqt va makon tasavvurini beradi, ertakdagi voqealarning mantiqiy ketma-ketligini mustahkamlaydi.

Voqea takrori.

Bu turdagi takror asosan qahramonning ruhiy va axloqiy shakllanish jarayonini ifodalaydi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagida yoki "Alpomish" dostonida qahramon bir xil sinovlardan bir necha bor o'tadi. Bu uch marotabalik takror xalq tafakkuridagi "kamolot bosqichlari"ni ifodalaydi — ya'ni insonning sinov, sabr-toqat va mukammallikka intilish yo'lini belgilaydi. Shu jihatdan voqea takrori faqat dramatik ifoda vositasi emas, balki ramziy ma'no kasb etuvchi badiiy belgi sifatida ham xizmat qiladi.

Simmetrik takror.

Simmetrik takrorlar dostonlar tili uchun xos bo'lib, ular satrlarning boshida, o'rtasida yoki oxirida bir xil so'z, affiks yoki so'z shakllarining takrorlanishi orqali ohangdorlik hosil qiladi.

Masalan, Ergash Jumanbulbulning "Xoldorxon" dostonida:

"Men bu so'zdan g'am emasman,

Men seni odam demasman,

Men ham sendan kam emasman,

Savash etsang, kel-kel beri."

Bu parchada "Men" olmoshi satr boshida takrorlanib anaforik, fe'l shakllari va affikslar esa satp oxirida takrorlanib epiforik takrorni hosil qilgan. Bu kabi simmetrik takrorlar badiiy matnning ichki musiqiylikini ta'minlab, qahramon nutqidagi qat'iyat va iztirobni kuchaytiradi.

Aralash takror.

Aralash takrorlar simmetrik tizimda emas, balki tartibsiz, lekin maqsadli ravishda qo'llanadi. Ular asosan nasriy parchalarda yoki baxshi nutqining tabiiy oqimida uchraydi. Masalan, "Ol-ol, beklar, olganniki, beklarim, Qaytmay qilich solganniki, beklarim, Jallod bo'lib jondan keching, botirlar, Davlat xizmat qilganniki, beklarim. Lekin bek Sardorning ko'pdir odami, Odami ko'plikdan sira yo'q g'ami, Mirza Askar ozlik qilib turibdi, Oz ham bo'lsa uning ko'pdir anjomi." kabi satrlar ritmik ohangni yaratadi, tinglovchining e'tiborini bir nuqtada jamlaydi va matnga jonlilik baxsh etadi.

Takroriy birliklar baxshilar uchun voqealar tizimini shakllantirishda qulay omil bo'lish barobarida tinglovchilar uchun voqeani yaxlit holda tasavvur qilishini osonlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Bundan tashqari takrorlar matnning intonatsion butunligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega birlik sanaladi. Takroriy birliklar lingvopoetik jihatdan juda katta imkoniyatga ega.

Takroriy birliklarning barcha ko'rinishlari o'zaro uyg'unlikda xalq og'zaki ijodining umumiy badiiy tizimini tashkil etadi. Ular voqeaning ritmini, obrazlarning his-tuyg'usini va tinglovchiga estetik ta'sirni kuchaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois takror xalq estetik tafakkurining "eshitiladigan" ifodasi, xalq xotirasining lingvistik shakli sifatida qadrlanadi.

Muhokama. Takror xalq og'zaki ijodining tabiiy xususiyati bo'lib, u matnning ritmik va estetik qimmatini oshiradi. Ertaklarda takror hayotning davriyligi, sinov va qayta tug'ilish ramzidir. Dostonlarda esa takrorlar epik ohangni mustahkamlaydi va tinglovchida hayajon uyg'otadi. Ergash Jumanbulbul asarlarida takrorlar o'zbek epik nutqining o'ziga xos stilistik belgilarini tashkil etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, takroriy birliklar xalq tafakkuridagi barqaror estetik qadriyatlarni avlodlardan avlodga etkazish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Ertaklarda takror xalq hayoti, urf-odatlar va e'tiqodlari bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagida uch bor takrorlanadigan sinovlar – qahramonning ruhiy etilishi va axloqiy kamolot bosqichlarini ifodalaydi. Bu uchlik xalq tasavvurida "mukammallik" va "to'liq yakun" ramzi sifatida yashaydi. Shu bois uch marta takrorlanish – bu tasodifiy hol emas, balki chuqur semantik ma'noga ega badiiy belgi hisoblanadi.

Ertaklarda takroriy birliklar "boribdi-boribdi", "yo'lga chiqibdi", "etti tog' ortida" kabi shakllarda uchraydi. Bu iboralar o'quvchi yoki tinglovchida ma'lum bir musiqiy ohang uyg'otadi, voqeani eslab qolishni osonlashtiradi va xalq nutqining tabiiy ritmini yaratadi. Shuningdek, takror ertak matnini muvozanatli va uyg'un holga keltiradi, bu esa og'zaki ijodning eng muhim talabi sanaladi.

Dostonlarda takrorning oʻrni yanada murakkab va chuqurdir. U yerda takrorlar epik ohangni mustahkamlaydi, qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda, voqeaning dramatik kuchini oshirishda ham muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

Masalan, Ergash Jumanbulbuloʻgʻli repertuaridan joy olgan “Xoldorxon” dostonida “Men seni odam demasman, Men ham sendan kam emasman” kabi takroriy satrlar obrazlar orasidagi qarama-qarshilikni kuchaytiradi, satrlar oʻrtasida ritmik uygʻunlik hosil qiladi.

Folkloshunos olimlar J.Eshonqul va Sh.Turdimov tadqiqotlarida taʼkidlanishicha, takror xalq ongida hayotning davriyligi, sinov va qayta tugʻilish ramzini aks ettiradi. Bu gʻoya mifologik tafakkur bilan bogʻliq boʻlib, xalq ogʻzaki ijodida “takror – hayot” degan qadimiy tushunchaning semantik inʼikosidir. Shu bois ertak va dostonlarda uch marta takrorlanish koʻpincha ruhiy yangilanish, komillikka intilish yoki sinovdan oʻtish maʼnosida qoʻllanadi.

Natija. Tahlil davomida ertak va dostonlarda takror hodisasining turli koʻrinishlari aniqlandi. Takror xalq ogʻzaki ijodining ajralmas unsuri sifatida, matnning ritmik tuzilishini shakllantiradi, ohangdorlikni kuchaytiradi hamda badiiy mazmunni chuqurlashtiradi. U turli darajalarda – fonetik, morfemik, leksik, sintaktik hamda mazmuniy qatlamlarda namoyon boʻladi. Quyida oʻzbek xalq ertaklari va dostonlari tahlili asosida takrorlarning asosiy turlari hamda ularning estetik va semantik vazifalari izohlanadi.

Xulosa. Til muntazam rivojlanib boruvchi hodisa sifatida badiiy asarlarda yangi ifoda imkoniyatlarini ochib beradi. Takroriy birliklar – bu nafaqat uslubiy vosita, balki xalq xotirasi va estetik ongining barqaror koʻrinishidir. Ular badiiy nutqning musiqiylikni taʼminlab, esda saqlashni engillashtiradi va milliy badiiy tafakkurning davomiyligini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abdurahmonov X., Mahmudov N. Soʻz estetikasi. Toshkent: “Fan”, 1981.
2. Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar. Fargʻona, 1996.
3. Mirzaev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. Toshkent: Fan, 1979.
4. Mirzajonova M. Barqaror epik formulalar haqida baʼzi mulohazalar. OʻTA. №6. 2000.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 jildlik. 3-jild. 2008.
6. Oʻzbek folklorining epik janrlari. Toshkent: Fan, 1981.
7. Xoldorxon. Oʻzbek xalq ijodi seriyasi. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1981.
8. Tannen D. Tekrar, Diyalog ve Görüntü. – İngiltere, 1989. – S. 128
9. Tarasheva, Elena (2011) Chapter One: Studies of Repetition: Establishing a Unit of Analysis. In: Repetitions of Word Forms in Texts: An Approach to Establishing Text Structure. Cambridge Scholars Publishing, Newcastle upon Tyne, pp. 1-14. ISBN 9781443826624.

10. Fatma Bölükbaş. Metindilbilimsel çözümleme: Muzaffer İzgü'nün Yedi Uyurlar öyküsü. Cyprus International Ün. Folklor/Edebiyat Der., Cilt:16, Sayı: 63, 2010/3
11. Sienkiewicz M.P. Konuşma ve Edebi Eserlerin Bilimsel Tarzı. – M, 1984. – S.205.
12. Weils K. A. Biçembilim. Sözlük. Londra: Longman, 1997. – S. 395.